

## **Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchilari uchun**

### **QO‘LLANMA**

**Dars rejasi:**

**Mavzu: "Jinoyat va jazo**

**Fan: Davlat va huquq asoslari**

**Sinf: 11-sinf**

**Dars davomiyligi: 45 daqiqa**

---

**Dars maqsadi:**

1. Jinoyatning tushunchasi, belgilari, ayb, aybning shakllari, qasd va qilmishni istisno etuvchi holatlar haqida tushunchalar berish.
  2. Jinoyat sodir etishning oqibatlari, odam savdosi, odam o‘g‘irlash, tuhmat va haqorat qilishning tahlilini o‘rgatish.
  3. Zo‘ravonlikni oldini olish va unga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini tushuntirish.
  4. Har bir holat bo‘yicha amaliyatga qaratilgan keys va kazuslar orqali qonunga rioya qilishga ishonchni shakllantirish.
- 

**Kutilayotgan natijalar:**

1. O‘quvchilar jinoyatning huquqiy ma’nosini va uning belgilariga oid aniq tushunchalarga ega bo‘lishadi.
  2. O‘quvchilar aybning shakllarini, qasdni va qilmishni istisno etuvchi holatlarni to‘g‘ri tasavvur qiladilar.
  3. Jinoyat sodir etishning oqibatlari, odam savdosi va zo‘ravonlikni oldini olish va unga qarshi kurashish bo‘yicha bilimga ega bo‘lishadi.
  4. O‘quvchilar suhbat va muhokama orqali hayotiy vaziyatlar bilan tanishishadi.
- 

**Metodlar:**

- **Keys-metod:** Jinoyat va jazo bo'yicha hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish, keyslar orqali qonunga rioya qilishga oid bilimga ega bo'lish.
  - **Rolli o'yinlar:** Jinoyat sodir etish va aybdor shaxslarning rollarini ijro qilish, hayotiy vaziyatlarga oid to'g'ri qarorlarni qabul qilish.
  - **Blits so'rov:** Jinoyatga oid savollar orqali o'quvchilarning bilimlarini tekshirish va qo'llab-quvvatlash.
  - **Suhbat:** Jinoyatlar, ayb, qasd va qilmishlar haqida o'quvchilar bilan faol suhbat olib borish.
  - **Hikoyalar:** Hayotiy misollar keltirish, jinoyatlarning oqibatlari va unga qarshi kurashish to'g'risida aniq hikoyalar orqali ta'lim berish.
- 

### Foydalananadigan materiallar:

- **Taqdimot:** Jinoyat, ayb, aybning shakllari va oqibatlari haqida slayd materiallar.
  - **Qonun hujjatlari:** O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi.
  - **Kartochkalar va keyslar:** Rolli o'yinlar va keyslarni baholash uchun materiallar.
- 

### Dars qismlari:

#### 1. Kirish (5 daqiqa)

- O'quvchilarga savol: "Jinoyatni qanday belgilarini bilasiz?"
- Jinoyat, ayb, aybning shakllari va jinoyatning oqibatlari haqida o'quvchilarning fikrlarini jamlash.

#### 2. Jinoyat tushunchasi va belgilari (8 daqiqa)

- **Jinoyat tushunchasi:** Jinoyat – bu Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

- **Jinoyat belgilari:**

- **Ijtimoiy xavflilik:** Ijtimoiy xavflilik jinoyatning eng muhim belgilardan biridir. Bu — jinoyatning jamiyatga, davlatga yoki fuqarolarga qanday xatar va zarar yetkazish ehtimoli, shuningdek, ularning hayoti, sog'lig'i, mol-mulki yoki huquqlariga qanday ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Ijtimoiy xavflilik jinoyatning darajasini belgilaydi. **Huquqiy belgilar:** jinoyatning huquqiy belgilari - huquqqa zidlik, ayb hamda javobgarlikning(jazo) mavjud

bo‘lishini anglatadi. Bu, jinoyatning huquqiy tartibdagi tavsifi va huquqiy chegaralarini aniqlashga yordam beradi.

- **Savol:** “Jinoyatning asosiy belgilari nimalardan iborat?”
- **Faoliyat:** O‘quvchilarni jinoyatlarning belgilari bilan tanishtirish, real holatlarda qaysi belgilari paydo bo‘lishini baholash.

### **3. Ayb, aybning shakllari, qasd, qilmishni istisno etuvchi holatlar (10 daqiqa)**

- **Ayb:** ijtimoiy xavfli qilmishni qasddan yoki ehtiyoitsizlik natijasida sodir etgan shaxsning aybdor deb topilishi.
- **Ayb shakllari:**
  - **Qasd:** bu shaxsning jinoyatni sodir qilishga intilishi, ya’ni u o‘z harakatlari yoki harakatsizligi bilan qasddan, ya’ni anglagan holda jinoyatni sodir etadi.
  - **Ehtiyoitsizlik:** bu shaxsning o‘z harakatlariga munosabatda bo‘lib, ularni jamiyatga zarar yetkazish ehtimolini hisobga olmasligi yoki ehtiyoitkorlik bilan amalga oshirmsasligidir. Ehtiyoitsizlik jinoyatlarda shaxsning maqsadi yoki niyati jinoyatni sodir etish emas, balki ehtiyoitkorlikning yo‘qligi yoki kamchiligi orqali sodir bo‘ladi.
  - **Javobgarlikning istisno etuvchi holatlari:** bu shaxs jinoyat sodir etgan bo‘lsa ham, huquqiy javobgarlikka tortilishdan ozod etiladigan holatlardir. Bu holatlarda shaxs jinoyatni sodir etsa ham, qonuniy asosda u bundan javobgar bo‘lmaydi.
- **Faoliyat:** O‘quvchilarni qasd va aybning shakllari bilan tanishtirish.
- **Keys:** “Shaxs begonalarning xonadoniga o‘g‘rilik sodir etish maqsadida kirishga harakat qildi, lekin xonadonda odamlar borligini bilgach, xonadonga kirmadi, ya’ni jinoyat sodir etilmadi. Bu holatni qanday baholaysiz?”

### **4. Jinoyat sodir etish va uning oqibatlari (8 daqiqa)**

- **Jinoyatning oqibatlari:** Qonun bilan belgilangan jazo va javobgarlik qo‘llaniladi.
- **Jazo tushunchasi:** Jazo jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxsga nisbatan davlat nomidan sud hukmi bilan qo‘llanadigan va mahkumni qonunda nazarda tutilgan muayyan huquq va erkinliklardan mahrum qilish yoki ularni cheklashdan iborat majburlov chorasisidir.
- **Nima uchun jazo tayinlanadi?:** Jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to‘sinqilik qilish hamda mahkum, shuningdek boshqa shaxslar yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi.
- **Jazo turlari:** Jinoyat sodir etishda aybli deb topilgan shaxslarga nisbatan quyidagi asosiy jazolar qo‘llanilishi mumkin: 1) jarima; 2) muayyan

huquqdan mahrum qilish; 3) majburiy jamoat ishlari; 4) axloq tuzatish ishlari; 5) xizmat bo‘yicha cheklash; 6) ozodlikni cheklash; 7) intizomiy qismga jo‘natish; 8) ozodlikdan mahrum qilish; 9) umrbod ozodlikdan mahrum qilish.

- **Savol:** “Jinoyat sodir etishda qanday oqibatlari bo‘lishi mumkin?”
- **Suhbat:** O‘quvchilarga jinoyatning qanday oqibatlarga olib kelishi, jazo turlari haqida ma’lumot berish.

## 5. Odam savdosi, tuhmat va haqorat qilish (10 daqiqa)

• **Odam savdosi:** bu shaxslarni (odamlarni) majburiy mehnatga yoki jinsiy ekspluatatsiyaga ishlatish, ularni maqsadli joylarga, shaxslar yoki davlatlar orasida savdolash, ularning erkinligini cheklash bilan bog‘liq jinoyatdir. Odam savdosi jamiyatga va inson huquqlariga zid bo‘lgan jinoyat hisoblanadi va ko‘pincha ma’muriy va jinoyat huquqi orqali jazo choralari ko‘riladi.

• **Tuhmat va haqorat:** bu shaxsning sharafiga, sha’niga va qadr-qimmatiga putur yetkazish, uning haqiqiy, yoki yolg‘on xulosa va ma’lumot zarar yetkazishdir. Ular axborot yo‘li bilan yoki ma’lumotga bog‘liq amallar orqali jamiyatda yoki shaxsiy munosabatlarda boshqalarni tuhmat qilishga yoki haqorat qilishga bog‘liq huquqbazarliklardir.

• **Faoliyat:** O‘quvchilarni odam savdosi va tuhmatning oqibatlari bilan tanishtirish.

• **Keys:** “Jamshid ismli shaxs— Shaxzod ismli bolanini, o‘zining majburiy mehnatga yollash maqsadida ish haqi va’dasini bergan holda aldab, O‘zbekiston hududidan Koreyaga olib kelgan. U, Shaxzodni turli ishlarda, ayniqsa qurilish va qishloq xo‘jaligi sohalarida ishlashga majbur qilgan.”

## 6. Yakuniy xulosa (4 daqiqa)

• **Suhbat:** O‘quvchilar bilan jinoyatlar va uning oqibatlari haqida suhbat.

• **Yakuniy savollar:** "Jinoyatlarning oqibatlari va javobgarlik sabablari haqida nimalarni tushundingiz?"

• Xulosalarni umumlashtirish va jinoyatlarning oldini olishda faol ishtirok etishga targ‘ib qilish.

---